

**JURNALISTIK JANRLAR VA PUBLITSISTIKANING
SOHADAGI AHAMIYATI.**

Egamova Fazilat Matyoqubovna
*O'zbekiston Jurnalistika Va Ommaviy
Kommunikatsiyalar Universiteti 1-Bosqich Doktoranti*

Annotatsiya: ushbu tezisda butun dunyo miqyosida muhim hisoblangan jurnalistika sohasi hamda undagi publitsistik jarayonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy ideallar, obyektiv fikr, badiiy obrazlar, ijtimoiy-siyosiy masalalar, publitsistik ijod.

Asosiy qisim: Bugungi kunda butun jahonda axborot almashinuvi jadal tarzda rivojlanib bormoqda, aynan, bu jarayonda ommaviy axborot vositalari jumladan jurnalistika sohasining o'rni katta ahamiyatga egadir. XX asrning oxirlarida jurnalistikada janrlarning shakllanish jarayoni muayyan tizimga, tartibga tushib bo'lgandi. Jurnalistik janr tushunchasi bu ma'lumotni tizimli ravishda tuzish va ifodalash uslubi hisoblanadi. Janrlar uchta asosiy toifaga ajratiladi: axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik kabi turlarga bo'linadi. Ularning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Axboriy uslubda e'tibor, birinchi navbatda, sodir bo'lgan voqelik haqida xabar berishga qaratiladi.

2. Tahliliy materialda hodisalarning sabablar o'rganiladi va tushuntirishga ahamiyat qaratiladi. Ushu yondashuv auditoriyaga voqealar mohiyatini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

3. Badiiy-publitsistik janrlarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan dolzarb voqea va masalalar haqida xabardor qilish va shu orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishdir. "Publitsistikaning jamiyat hayotida ayni zamonda yuz bergan voqea-hodisalar haqida jamiyatni xabardor qilish, undagi mavjud masalalar, muammolar bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishdan iboratdir"¹². Publitsistika adabiyot va jurnalistika bilan o'zaro bog'liqligi tufayli ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan va hozirgacha bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ensiklopedik lug'atlarda: "Publitsistika – adabiyotning yo'nalishi sifatida hozirgi siyosiy, iqtisodiy, adabiy, huquqiy, falsafiy va zamonaviy hayotning boshqa muammolari jamoat fikriga va mavjud siyosiy institutlarga ta'sir qilish, ularni muayyan sinf manfaatlariga yoki ijtimoiy jihatdan mos ravishda mustahkamlash yoki o'zgartirish maqsadiga xizmat qiluvchi mavzular va axloqiy ideallarni ko'rib chiqadi. Publitsistikaning predmeti – real hayotni matbuotda, san'atda, hujjatda bor bo'yi bilan, o'zining ulug'vorligi va

¹² Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Tafakkur, 2011. – Б.30-33.

ixchamligi bilan aks ettirilishidir”¹³ deya izohlanadi. Ushbu lug‘atda publitsistika predmeti teran ta’riflangan, ammo uni adabiyotning bir turi sifatida belgilash, bizningcha, munozarali masala hisoblanadi. Boisi ikkala sohaning obyekt va predmeti, janrlari butkul boshqa-boshqayo‘nalishlar ekanligi to‘g‘risida qator tadqiqotlar mavjud. Bu haqida filologiyafanlari doktori Tamara Masharipova shunday e’tirof etadi: “Adabiyotning obyekti borliqdir. Yozuvchining borliqni aks ettirishi nihoyatda keng tushuncha. Adabiyot asarning predmeti esa deyarli anglab bo‘lmaydigan hodisa. Umumiy tarzda hayotiy muammolar deb aytish mumkin”¹⁴. Ya’ni, adabiyotda yozuvchi hayotni, jamiyatdagi voqealarni, insoniy tajribalarni o‘z badiiy asarida aks ettiradi. Yozuvchi borliqni qanday aks ettirishini tanlashda erkin, u hayotiy muammolarni badiiy obrazlar orqali chuqur va keng tasvirlab beradi. “Publitsistikaning obyekti – muayyan ijtimoiy voqea, hodisa. Predmeti – ushbu voqeaga sababchi bo‘lgan ijtimoiy muammo, odamlarni bezovta qilayotgan masalalar”¹⁵. Agar publitsistikani adabiyotning bir turi hisoblaydigan bo‘lsak, u zamonaviy ijtimoiy masalalar va voqealarga emas, ko‘proq doimiy dolzarb mavzularga murojaat qilgan bo‘lardi. Yana bir ukrainalik olim V.I. Zdorovega esa “publitsistikaning predmeti, eng avvalo, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy, ishlab chiqarish, axloqiy, ilmiy va boshqa barcha hayot hodisalarining ijtimoiy-siyosiy jihatini hisoblanadi” deya ta’kidlaydi.

Xulosa: Shuni aytish joizki, nafaqat jurnalistik tarmoqlarda balki adabiyotda ham publitsistika ajalmas bir qisim hisoblanadi, shuningdek ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda jurnalistik janrlardan foydalanish ham muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муратова Н. Онлайн журналистика: назария ва амалиёт. – Т.: Qaqpun media, 2019.
2. Тоғаев О. Ўзбек бadiiy публицистикаси. – Т.: Фан, 1973.
3. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Tafakkur, 2010.
4. Худойкулов М., Қозоқбоев Т. Журналистикага кириш. – Т.: Iqtisod-moliya, 2018.
5. Машарипова Т.Ж. Публицистика ва адабиёт// О‘зМУ xabarlar. – Toshkent, 2013. № 3. – B.212-216.

¹³ Загидуллина М. В. “Публицистика 2. 0: к определению понятия”. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература, 2018. –С.220-235.

¹⁴ Машарипова Т.Ж. Публицистика ва адабиёт// О‘зМУ xabarlar. – Toshkent, 2013. № 3. – B.212-216.

¹⁵ Машарипова Т.Ж. Публицистика ва адабиёт// О‘зМУ xabarlar. – Toshkent, 2013. № 3. – B.212-216.